



RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Aliboyev Akbar
Ithomjon o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi 1-
bosqich talabasi aliboyevakbar60@gmail.com

Annotatsiya: Bu tezisda raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Hozirgi davrda raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi butun dunyoda valyuta va pul operatsiyalarini amalga oshirishda muhim tizim bo'lib bormoqda. Tezida raqamli to'lov tizimlarining xarajatlarni kamaytirish, pul oqimini tezlashtirish hamda moliyaviy nazoratni kuchaytirish haqida ma'lumotlar berilgan. Umuman olganda bu tezis raqamli to'lov tizimlari iqtisodiyot uchun qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli to'lov tizimlari, xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy nazorat, iqtisodiy samaradorlik, valyuta.

Аннотация: В этом тезисе подробно анализируется экономическая эффективность цифровых платежных систем. В настоящее время быстрое развитие цифровых технологий становится важным инструментом для проведения валютных и денежных операций во всем мире. В этом тезисе представлена информация о том, как цифровые платежные системы снижают затраты, ускоряют денежный поток и усиливают финансовый контроль. В целом этот тезис показывает, насколько важны цифровые платежные системы для экономики.

Ключевые слова: цифровые платежные системы, снижение затрат, финансовый контроль, экономическая эффективность, валюта.

Annotation: This thesis provides analyzes the economic efficiency of digital payment systems. In the present tense, the rapid development of digital technologies is becoming an important tool for currency and monetary transactions around the world. The thesis provides information on how digital payment systems can reduce costs, accelerate cash flow, and strengthen financial control. In general, this thesis shows how important digital payment systems are for the economy.

Keywords: digital payment systems, cost reduction, financial control, economic efficiency, currency.

Raqamli to'lov tizimlari nima? Raqamli to'lov tizimlari bu- moliyaviy operatsiyalarni elektron vositalar orqali amalga oshirish imkoniyatini beruvchi texnologiyalar hisoblanadi. Umuman olganda oxirgi yillarda dunyoda tez

rivojlanayotgan tizimlardan biri bu raqamli to'lov tizimlari hisoblanadi. Bunga misol qilib Click, Xazna, Payme va yana boshqa ilovalarni kiritishimiz mumkin. Biz bu ilovalardan deyarli har kuni foydalanamiz. Hozirgi paytda faqat biz emas dunyo aholisining ko'plab qismi pul operatsiyalarini amalga oshirishda va valyuta ayirboshlashda bu tizimdan foydalanmoqda. Bunga asosiy sabab bu tizim to'lovlarni tez, qulay va xavfsiz amalga oshirishda katta yordam beradi ya'ni bu tizimlar bilan to'lov qilish qiyin emas o'rganish oson, bundan tashqari bu tizim va ilovalar davlatimizning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda ham ancha yordam bermoqda. Bugungi kunda ko'plab davlatlar shu qatorda O'zbekiston ham iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish orqali pul muomalasini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish hamda eng asosiysi xufyona iqtisodiyotning oldini olishga bu tizimlar orqali harakat qilmoqda.

Raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiyotdagi o'rni:

Raqamli to'lov tizimlari deganda bank kartalari, mobil ilovalar, va internet orqali amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar tushuniladi. Ushbu tizimlar orqali insonlar kommunal xizmatlarga, savdoga, aloqa vositalariga (telefon raqamimizga) va boshqa narsalarga pul o'tkazmalarini amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham raqamli to'lov tizimlari faol rivojlanmoqda. Mamlakatimizda mobil to'lov xizmatlarini taklif qiluvchi yetakchi platformalar qatoriga Click, Payme Paynet va boshqa bank ilovalari kiradi. Ushbu xizmatlar aholiga to'lovlarni tez va qulay amalga oshirish imkonini beradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi so'nggi uch yil davomida sezilarli darajada oshgan. Masalan, 2022-yilda mobil to'lovlar hajmi 114 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu 346 trillion so'mga yetgan. Bu esa uch yil ichida deyarli uch barobar o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar mamlakatimiz iqtisodiyotida raqamli to'lov tizimlarining ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri:

1. Pul aylanishini tezlashtirish: Raqamli to'lovlar orqali amalga oshiriladigan o'tkazmalar tez bajariladi (bir necha daqiqa). Bu esa savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida iqtisodiy faoliyatni tezlashtiradi. Masalan, O'zbekistonda 2024-yilda POS-terminallar orqali amalga pul o'tkazmalar 326,7 trillion so'mni tashkil etgan.

2. Xavfsizlik hamda Shaffoflik: Raqamli to'lov tizimlari orqali operatsiyalar har doim kuzatiladi, bu firibgarlik va soxtalashtirish kabi hodisalar bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Bu esa yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga yordam beradi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak pulni yashirib o'ziga olib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Chunki bu tizimda inson omili cheklangan.

3. Moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati: Raqamli texnologiyalar chekka hududlardagi aholi uchun bank xizmatlaridan foydalanishni osonlashtiradi. Misol uchun, oldin aholi banklarga borib operatsiyalarni amalga oshirgan bo'lsa, ya'ni farzandining kontraktini to'lashga, soliq to'lashga hattoki dollar maydalashga ham bankka borgan bo'lsa, hozir vaqt ketmizmagan holda raqamli to'lov tizimlari orqali tez va oson amalga oshirishi mumkin. Bu tizim dastlab insonlar orasida qiyin, ishonchsiz yoki tushunarsiz bo'lgan bo'lishi mumkin lekin hozir hamma bu tizimlar

foydali va xavfsiz ekanligini bildi va hozirda bu tizim vaqtimizni samarali boshqarishga yordam bermoqda.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi natijasida naqd pulsiz hisob-kitoblar ortib bormoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga qaraganda 2023-yilda naqd pulsiz(online) to'lovlar ulushi umumiy to'lovlar hajmining 52% ni tashkil etdi, bu 2017 yildagidan 49%ga ko'p hisoblanadi. 2024-yil birinchi yarmida bu ko'rsatgich 58%ga yetdi, bundan ko'rinib turibdiki mamlakatimizda ijobiy o'sish davom etmoqda va bardavom bo'ladi degan umiddaman. Hozirgi paytda davlatimizda ko'plab raqamli to'lov tizimlari bor ya'ni har bir bankning o'z ilovasi bor, misol uchun Xalq bankniki Xazna, Aloqa bankniki Zoomrad, Milliy bankniki Milliy 2.0 va boshqalar. O'zbekistonda o'z kartalarini umuman olganda o'z tizimini eng tez rivojlantirayotgan bank bu Uzum bank hisoblanadi. 2026-yilda Uzum bank kartalari 5,6 million donadan oshdi. Bunday yuksalishga asosiy sabab bu karta orqali ko'plab chegirmalar olishimiz mumkinligi dep o'ylayman. Misol uchun bu karta orqali metro va avtobuslarga to'lov 1700 so'm emas 650 so'm, Uzum market va Uzum tezkor orqali narsa xarid qilsak katta chegirmalar va bundan tashqari bizning taklif havolamiz orqali ochilgan har bir karta uchun 40 000 so'm pul mukoti bor. Bular kartani olishimiz uchun sabab bo'la oladi dep o'ylayman. Shunday qilib bu bank raqamli to'lov tizimini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston Respublikasida raqamli to'lov tizimlari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024*
Naqd pulsiz to'lovlar ulushi(%)	22	35	45	52	58
Bank kartalari soni(mln)	25,4	32,1	38,7	42,3	45,8
Mobil to'lovlar hajmi(trln so'm)	85	142	218	312	195
POS terminallar soni(ming)	156	245	342	428	485
To'lov ilovalari foydalanuvchilari(mln)	8,5	14,2	21,6	28,4	32,1

*2024-yil birinchi yarmi uchun ma'lumotlar. Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

Bu tizimlarning ijobiy taraflari bilan birga bir qancha salbiy taraflari ham mavjud. Ular quyidagilar:

1.Xavfsizlik muammolari: bu tizimdan foydalanganimizda doimo xavfsizlik qoidalariga rioya qilishimiz lozim ya'ni har bir ilovamizga maxfiy parol qo'yishimiz zarur yoki karta ma'lumotlarimizni doimo sir tutishimiz kerak. Bu pulimizni xavfsiz saqlashga yordam beradi.

2.Texnologiyalarning yetishmasligi: Respublikamizning chekka hududlarida hozirgacha internet aloqasi bilan bog'liq muammolar mavjud ya'ni chekka

qishloqlarda antenna ham o'rnatilmagan (antenna bo'lmasa internet ham bo'lmaydi), biz bu muammolarni bartaraf etishimiz kerak.

3.Moliyaviy savodxonlikning pastligi: Insonlar orasida moliyaviy savodxonlik bilimlarini oshirish kerak. Chunki hali ham aholi orasida pul o'tkazmalarini amalga oshirishda xatoliklar kuzatilyapti(misol uchun adashib boshqa hisob raqamga to'lov amalga oshirish yoki umuman amalga oshira olmaslik) va boshqa sabablarni keltirishimiz mumkin. Biz bu muammolarni hal eta olamiz chunki bu tizimni o'rgatish qiyin emas buni ustiga xalqimiz qiziquvchan buni tezda o'rganib oladi.

Shunday qilib raqamli to'lov tizimlari iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblanadi, hozirgi davrda iqtisodiyotni bu tizimsiz tasavvur qilishimiz qiyin(tasavvur qilib ko'ring telefon raqamizmiga to'lov qilish uchun ham bankka yoki paynetga borsak).Bu tizimni iqtisodiyotda joriy etishimiz faqat moliyaviy operatsiyalarni qulaylashtirib emas balki iqtisodiy samaradorlikni ham sezilarli darajada oshirishga yordam beradi Bu tizim orqali pul o'tkazmalarimiz tez, oson, hamda arzon(komissiyasiz) amalga oshadi.Bundan tashqari bu tizim naqd pulga bo'lgan ehtiyojimizni sezilarli darajada pasaytirib naqd pulsiz iqtisodiyotimizni shakllantirishga yordam beradi.Chekka hududlarda istiqomat qiluvchi aholining bu xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengayadi(ya'ni ular endi bankka borib to'lov qilishi shart emas). Umuman olganda raqamli to'lov tizimlari iqtisodiyotda katta yutuqlarga erishishimizga yordam beradi va biz yoshlar uchun katta imkoniyatlar beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yhati:

1.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekistonda to'lov tizimlari va naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha statistik ma'lumotlar.-Toshkent, 2024.

2.O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Raqamli xizmatlari rivojlanishi bo'yicha hisobot.-Toshkent, 2023.

3.Statistika agentligi huzuridagi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari.-Toshkent, 2024.

4. F. Qodirov. Zamonaviy to'lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.

5.T.T.Jo'rayev Iqtisodiyot nazariyasi kitobi Toshkent-2017

6. <https://cbu.uz>